

SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI, IJTIMOIYLASHUVI

Dexkanova Ma'mura¹

Rasulova Komilaxon, Asayeva Shirin²

¹Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qiluvchisi

²Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6628510>

Annotatsiya: Ushbu maqola shaxs bo'lib shakllanish davrida unda kechadigan jarayonlar, uning hayotdagi tarbiyasi hamda shu tarbiya orqali jamiyatda topadigan o'rni, insonlar orasida manfaat keltiruvchi barkamol shaxs sifatida shakllanishi borasida so'z boradi.

Kalit so'z: shaxs, tarbiya, rivojlanish, muhit, oila, maktab, do'stlar jamoasi, bog'cha jamoasi, hamkasblar jamoasi, irsiyat.

Jamiyatimiz shunday bir jamoaki, undagi har bir fuqaro o'zining ma'lum darajada o'rniga ega. Hozirgi jadallik bilan modernizatsiyalashayotgan zamonda mukammal shaxs darajasiga yetib borish uchun bir qancha pog'onalarda o'tishi zarur. Avval shaxs tushunchasining o'ziga to'xtaladigan bo'lsak, shaxs bu-alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot ob'yekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. Shaxs masalasida yana bir nuqtaga to'xtaib o'tsak bo'ladi: Jamiyatimiz uchun manfaat keltiruvchi, o'zining muqim o'rniga ega, o'zi yashayotgan davr nuqtai nazaridan to'liq kamol topgan inson tushunildi.

[Odam bolasining rivojlanishi- bu muhim jarayon hisoblanadi. Ma'lumki hayot davomida inson jismoniy va ruhiy tomondan o'zgarib boradi. Lekin bolalik o'smirlik, o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola manashu yillarda ham, jismoniy ham, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolotga yetadi.]¹ Manashu 3 ta davrdagi insondagi shaxs sifatida kamol topish darajasi turlicha kechadi. Dastlabki 2 ta davr: bolalik va o'smirlik paytida boradagi o'zgarishlar ko'proq jismoniy tarafdin yuz beradi. Bolada asta-sekinlik bilan atrof-muhitga qiziqish, yon-atrofidagi odamlar bilan davomli muloqotga kirishish, o'zi qiziqqan biror narsa yoki voqea-hodisa to'g'risida bemalol o'z fikrini bayon etish yoki so'rash orqali bolada dastlab onasi bilan, oiladagi boshqa a'zolar bilan, bog'chada tengqurlari bilan, maktabda sinfdoshlari bilan, vaholanki jamiyatning kichik-kichik bo'g'inlari bilan aralashuv jarayonini boshlaydi.

O'smirlik davrida esa uning asosiy vaqti maktabdagi sinfdoshlari doirasida kechadi. Odatda barcha tengqur bolalarga bir xil tarbiya berilsa yoki ma'lumotlar yetkazilsa ularda qabul qilish turlicha bo'ladi. Chunki har bir

shaxsning rivojlanish darajasi turlicha . Bu yerda oila ham asosiy bo'ginda turadi. Negaki bolalikda olingan har bir tarbiya uning rivojlanishining dastlabki bosqichlari hisoblansa, o'smirlik davrida olingan barcha tarbiyalar yuzaga chiqqan boshlaydi. Aynan shu davrda bolaga to'g'ri yo'nalish berilsa, uning tarbiyasida e'tiborsiz bo'lmasdan ,uning qiziqishlarini aniqlab, tarbiya borasida dastlabki ko'nikmalar berilsa bola o'sgan sari bu rivojlanib , shaxs sifatida kamol topishga poydevor bo'ladi. O'spirinlik davrida bo'la ko'proq tashqi omil ta'sirida, ya'nikim atrof-muhit, yon-atrofidagi insonlar ta'sirida tarbiyalandi. Bu davrda psixologik tarafdin shakllanishi ulgurgani bois unda o'z muammolarini o'zi hal eta olish, o'zi uchun kerak bo'lgan qarorlarni qabul qilish , o'z fikrini teran holda anglab yetib ,uni o'zgalarga yetkaza olish xususiyatlari shakllanayotgan yoki shakllanishga ulgurgan bo'ladi. Shu jihatlarini hisobga olib bu davrdagi bolalarga so'z bilan ta'sir etish samaraliroq bo'ladi.

Yosh davrlaridan tashqari bola tarbiyasi va rivojlanishida yana 3 omilga e'tibor qaratamiz

- Irsiyat
- Tarbiya
- Muhit

Inson aqliy jihatdan rivojlanishida avval unda jismoniy jihatdan rivojlangan bo'lishi(jismoniy nogironlik albatta bundan mustasno) lozim . Ota-onadagi ba'zi xususiyatlar bolaga tabiiy ravishda ko'chadi va bu bolada rivojlanish jarayonining tez yoki sekinroq kechishiga bog'liq. Ammo gendan o'tgan har qanday qobiliyat yanada rivojlantirilib, to'g'ri yo'nalishga yo'naltirilmasa, bu qobiliyat so'nib borishi yoki salbiy ta'sirlar ko'rsatishi mumkin.

[Tarbiya muhit kabi inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insondagi ijobiy fazilatlarini tarkib toptirishyo'lida tarbiyachi rahbarligida muntazam amalga oshirib boriladi.]² Inson shaxs sifatida kamol topishi uchun avvalo undagi tarbiya mustahkam bo'lmog'i hamda to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Buning uchun avvalo oilada ota-ona ma'sul shaxs hisoblansa, eng asosiy tarbiya beruvchi shaxs yetuk malakali pedagogdir. Ota-ona bolaga umumiy tartib-intizom borasida o'rnatib bo'lib tarbiyalaydi. Bu paytda bolaga nutq bilan ta'sir etishdan ko'ra o'rnatib bo'lish yoki bolani to'g'ri qilgan har bir ishini e'tiborga olib uni keraklicha rag'batlantira olishi kerak. Shundagina bolada dastlabki tarbiya shakllari rivojlana boshlaydi. [Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ta'sir etadi. Bola maktabga qadam qo'yar ekan, o'quv mehnati bilan band bo'ladi. Bu unda mehnat tarbiyasining shakllanishida muhim

omil hisoblanadi. Bolalar maktabda fan asoslarini egallash bilan bir qatorda ularda asta -sekin dunyoqarash rivojlanib boradi.]³ Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, maktab davrida olingan tarbiya bolada butun umr saqlanib qoladigan bosqich hamda hayotga tayyorgarlik darajasini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Tarbiya olish jarayonida jamoada olinadigan tarbiyaning ham o'z o'rni bor. Biz tarbiya olish imkoni bo'lgan jamolarni tartiblab chiqamiz:

- Oila jamoasi
- Bog'cha jamoasi(keyingi paytda bolalarni bog'chaga qamrab olish darajasi kengaygani bois bolalar maktabgacha bo'lgan tarbiyani aynan shu maskandayoq olishni boshlamoqda)
- Maktab jamoasi
- Do'stlar jamoasi
- Hamkasblar jamoasi

Manashu bir qancha jamoalarga o'ziga xos muhit shakllarga bo'lib bu jamolarda inson to'liq shaxs sifatida kamol topish uchun kerakli tarbiya va bilimni olishi mumkin.

[Oilada bola ota-onasini ideal shaxs sifatida qabul qiladi. Toki o'zida mustaqil fikr shakllanmagunicha dunyoga ota-onasi ,ayniqsa, onasining ko'zlari orqali boqadi.]⁴Hadisi shariflarimizda ham[“Ota-onaning bolaga beradigan eng yaxshi ne'matlardan biri bu go'zal xulq hamda jo'yali tarbiyadir”]⁵ deya bejizga keltirilmagan.

Bog'cha jamoasi- bu hozirda tarbiya jarayonining yangi va keng darajada shakllanib borayotgan va bola hayotidagi boshlang'ich tayanch tarbiya maskani hisoblanadi. Bolalar bi'r-birlari bilan o'zaro muloqotga kirishib, bir-birlaridagi salbiy va ijobiy fazilatlarni ajrata boshlaydilar.

Maktab jamoasi- maktabda pedagoglarda tashqari do'stlar jamoasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki bolada tayanch tarbiyani shakllanishi kun davomida birga bo'ladigan do'stlari orqali ham davom etadi. Ular bilan to'g'ri munosabatda bo'lish, maktabda bo'ladigan har qanday vaziyatlardan chiqib keta olish, o'zaro ahillik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, jamoa bo'lib ish yuritish kabi ko'nimalarni shakllantiradilar. Aynan manashu davrda bola tarbiyasida kechadigan salbiy va ijobiy o'zgarishlar yon-atrofidagi do'st-birodarlari orqali bo'lishi ham kuzatiladi. Bunda eng muhim masala o'zi uchun kerakli do'stning topa olish va o'zi uchun dog'lom bo'lgan muhitni yaratish hisoblanadi.

Hamkasblar jamoasi- odatda insondagi bu davrgacha shakllanib kelgan ta'lim va tarbiya namoyon bo'ladi. Ammo insondagi jismoniy va aqliy qolaversa,ijtimoiy o'zgarishlar 25 yoshgacha davom etishini hisobga olib , bu davrning ham tarbiyaning shakllanishiga bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi . Bu jamoada

inson jamiyatda o'z o'rnini topish, birovlar hamda o'zi uchun manfaatli ishlarni amalga oshira olish, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari barcha harakatlarni bajara olish kabi xususiyatlarni shakllantiradilar.

Bola tarbiyasida muhit ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bular timsoliga oilani va do'stlar davrasini ko'rsak bo'ladi

Shaxs hayot davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi, natijada u shaxsga aylanadi. Shu sababli shaxsni ma'lum ijtimoiy tuzumning mahsuli deb tushunishimiz lozim . Ijtimoiylashuv jarayoni murakkab jarayon bo'lib ,shu davrda shaxsning olgan tarbiyasi hamda bilimi o'zini namoyon etadi. Qay darajada kamol topgani yaqqol ko'rinish beradi. Jamiyatda ko'plab insonlar bilan muloqotlarni amalga oshirib o'zi uchun kerakli bo'lgan xususiyatlarni o'zlashtirish hamda ortiqcha bo'lgan xatti-harakatlarni anglay bilish yetuk shaxs sifatida kamol topganligidan darak beradi

Xulosa qilib aytganda, bolaning esini tanigan chog'ida tarbiya berib borilishi, uning kelajakda yetuk shaxs sifatida shakllanishi haqida unga eslatib tirilishi hamda jamoa, qolaversa jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi haqidagi tushunchalar berilib borilishi kerak. Bular bosqichma-bosqich amalda namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ¹ -Pedagogika Rahima Mavlonova, Oysha To'rayeva, Karim Xoliqberdiyev . Toshkent "O'qituvchi" 2002
2. ² -Pedagogika nazariyasi va tarixi . R . Mavlonova, N . Vohidga, N Rahmonqulova . Toshkent-"Fan va texnologiya" – 2010
3. ³ - Pedagogika nazariyasi va tarixi . R . Mavlonova, N . Vohidga, N Rahmonqulova . Toshkent-"Fan va texnologiya" – 2010
4. ⁴ - 9- sinf Adabiyot darsligi.
5. ⁵ - Pedagogika Rahima Mavlonova, Oysha To'rayeva, Karim Xoliqberdiyev . Toshkent "O'qituvchi" 2002